

A'ZAM BOLTAEV

BUKHARA STATE
UNIVERSITY
TEACHER OF THE
DEPARTMENT OF HISTORY
OF BUKHARA, PHD



azam.boltaev.2015@mail.ru

**RAMAZONOVA FERUZA
XUDOYNAZAROVNA**

BUKHARA STATE
UNIVERSITY
TEACHER OF THE
DEPARTMENT OF
PEDAGOGY

ABOUT THE TOPONYM "BUKHARA"

О ТОПОНИМЕ "БУХАРА"

"BUXORO" TOPONIMI HAQIDA

Abstract: The appearance of geographical names is a product of the historical development of mankind. With the growth of human speech, ideas and thinking about being, worldview, the naming of places grew, and pronouns also increased. Currently, it is impossible to imagine an object without a name. Every place has its own name. In this article, an opinion was expressed about the origin of the toponym Bukhara and it was noted that this region is rich in historical toponyms and that the term Bukhara and most of its local names are two-component, and sometimes even three-component, and mainly combine features of the Persian-Tajik language. There are also toponyms that have preserved Sogdian language tones in the country. In addition, the article presents scientific research conducted by academic scientists in the country and their scientific views on the toponym Bukhara.

Key words: Bukhara, toponym, Numijkat, Boom to look for, Navmichkat, Zarirud, Farabdiz, Fakira, Pineapples, Mango, Nimi, Buhoy, Buihiye, buhaer, Fuho Puhalo, Buhalo, Copper city, city of merchants.

Аннотация: Появление географических названий-продукт исторического развития человечества. С ростом человеческой речи, представления и мышления о бытии, мировоззрения росло именованье мест, увеличивались и местоимения. В настоящее время невозможно представить объект без названия. Любое место имеет свое название. В данной статье было высказано мнение о происхождении топонима Бухара и отмечено, что этот край богат историческими топонимами и что термин Бухара и большинство его местных названий являются двухкомпонентными, а иногда даже трехкомпонентными, и в основном сочетают в себе черты персидско-таджикского языка. Существуют также топонимы, сохранившие в стране согдийские языковые тона. Кроме того, в статье изложены научные исследования, проведенные учеными-академиками в стране, и их научные взгляды на топоним Бухара.

Ключевые слова: Бухара, топоним, Нумижкат, Бумискат, Навмичкат, Зарируд, Фарабдиз, Фохира, Ан, Анси, Анго, Ньюми, Бухо, Бухе, бухаер, Фухо Пухало, Бухало, Медный город, город купцов.

Annotatsiya: Joy nomlarining paydo bo'lishi insoniyat tarixiy taraqqiyotining mahsulidir. Inson nutqi, borliq to'g'risidagi tasavvuri va tafakkuri, dunyoqarashining o'sib borishi bilan joylarni nomlash ortib, joy nomlari ham ko'paya bordi. Hozirgi kunda nomsiz ob'yektni tasavvur qilish mumkin emas. Har qanday joy o'z nomiga ega. Mazkur maqolada, Buxoro toponimining paydo bo'lishi haqida fikr yuritilib, bu o'lkaning tarixiy toponimlarga boy maskanligi va Buxoro atamasi hamda undagi joy nomlarining aksariyati ikki komponentli, ba'zida hatto uch komponentli ekanligi va asosan fors-tojik tilining xususiyatlarini o'zida mujassam etganligi qayd qilingan. Shuningdek, o'lkada sug'diy til ohanglarini saqlab qolgan toponimlar ham mavjud. Bundan tashqari maqolada akademik-olimlar tomonidan o'lkada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va uning natijasida Buxoro toponimi to'g'risidagi ilmiy fikrlari bayon qilingan.

Tayanch so'zlar: Buxoro, toponim, Numijkat, Bumiskat, Navmichkat, Zarirud, Farabdiz, Foxira, An, Ansi, Anjo, Nyumi, Buxo, Buxe, Buxaer, Fuho Puxalo, Buxalo, mis shahar, savdogarlar shahri.

KIRISH (INTRODUCTION)

O‘zbekistonda jahonga mashhur shaharlar va tarixiy obidalar juda ko‘p. Dunyo e’tirof etgan ana shunday qadimiy shaharlardan biri Buxorodir. Prezidentimiz qayd qilganidek: “Buxoro ezgulik shahri – qadimgi ajdodlarimiz, uni shunday atashgan, jahon madaniyatining yorqin va qadimiy o‘chog‘i bo‘lgan bu shaharni biz, avlodlar ham shunday ataymiz”. Ma’naviyat va madaniyat maskani bo‘lgan bu shaharni butun jahon biladi. Ana shu qutlug‘ shaharning nomlari va uning ma’nosi, ya’ni toponimikasi, tabiiyki, barchada qiziqish uyg‘otadi.

Buxoro shahri tarixining zukko bilimdoni, akademik A.Muhammadjonovning asarlarida shahar toponimiyasi haqida ancha chuqur va batafsil ma’lumot berilgan. Shahar hududida va Zarafshon vohasida juda ko‘p arxeologik tadqiqotlar o‘tkazgan olim shahar nomlari haqida fikr yuritar ekan, ularni dastlab ikki guruhga bo‘ladi. Arab tarixchilari keltirgan nomlarning bir toifasi uning mahalliy aholisi tomonidan, ikkinchi toifasi – chetdan kelganlar tomonidan berilganligini qayd etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Shaharning mahalliy nomlari Numijkat, Bumiskat, Navmichkat, Buxoro tarzida atalgan. Jumladan, Navmichkat - uch so‘zdan iborat bo‘lib, ma’nosi “Nav” - tojikcha, forscha – yangi “mich” – sug‘diy - “qal’a”, “istehkom”, “Kat” - qishloq demakdir. Demak, Navmichkat – “yangi qal’a”, “yangi shahar”, “yangi mustahkamlangan qishloq” ma’nosini beradi [4: 22].

Shaharning bunday nomlanishi bejiz emas, chunki u dastlab uchta qishloq, qal’a tarzida vujudga kelgan. Qadimgi Buxoro hozirgi Miri Arab, Masjidi Kalon va ark oralig‘idan o‘tgan ko‘cha o‘rnida o‘tgan Zarirud daryosi sohilida 3 ta qal’a tarzida vujudga kelgan. Zarirud Zarafshon daryosining quyi oqimlaridan biri bo‘lib, uning kengligi 100 – 120 metr bo‘lgan va suvlari Poykandgacha etib borgan. Ana shu o‘zanning o‘ng sohilida hozirgi ark turgan yerda bir qal’a, shahriston va Miri Arab madrasalari o‘rnida bir-biriga ro‘para yana ikkita qal’a bo‘lgan [4: 24]. Keyinchalik ana shu uchta qal’a, ya’ni Farobdiz, Buxor, Navmichkat qo‘shilib ketgan. Qadimgi qal’alarning nomlanishi ham tarixiy sharoitni o‘zida mujassam etgan. Jumladan, akademik A.Muhammadjonovning izohlashicha, “Farob” - so‘g‘dcha – “sohil bo‘yi” va “diz – qal’adir” ki, Farobdiz – “suv yoqasidagi qal’a” yoki “sohilbo‘yi qo‘rg‘oni”, “sohilbo‘yi shahri” kabi ma’noni anglatadi [4: 28].

Olimning bu xulosasi Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi” kitobidagi fikrlarga mos keladi. Narshaxiyning yozishicha, hozirgi Buxoro shahri joylashgan yer ilgari botqoqlik bo‘lgan. Uning bir qismi daraxt, changalzorlar bilan qoplangan bo‘lib, undan hatto biror hayvon ham o‘ta olmagan. Samarqand tomonidagi tog‘lardagi yerlarga qor suvlari katta maydondagi joylarni yuvib, o‘zi bilan loyqani Farobga qadar olib borgan. Keyinchalik daryoning (Narshaxiy uni Mosaf deb ataydi) toshishi to‘xtab, Buxoro joylashgan yer asta-sekin to‘lib shu joyni shahar egallaydi.

Arxeologlar tomonidan shahar yoshini aniqlash maqsadida 2,5 ming kv.m. ni egallagan Miri Arab madrasasi bilan Toqi Zargaron oralig'ida olib borilgan arxeologik qazishmalar, 17,5 metr chuqurlikkacha etib bordi va yuqorida Narshaxiyning kitobida keltirilgan fikrlarni ilmiy dalillar bilan tasdiqladi.

Miri Arab madrasasi yonida 4,5 metr chuqurlikdan shaharning qadimgi mudofaa devorlari qoldiqlari topilgan. Uning balandligi 5-6 metr bo'lib, qalinligi 17,5 metrni tashkil etgan.

Qadimgi Buxoroning nomlari orasida eng mashhuri "Buxoro"dir. Bu toponimning ma'nosi xususida ham xilma-xil fikrlar mavjud. Jumladan, mashhur sharqshunos olim, akademik V.V.Bartold bu atamani qadimiy hind tili, sanskritcha "Vixara" - monastir, yoki budda dini rohiblari yig'iladigan joy, ibodatxona tarzida izohlaydi. A.Muxammadjonov esa uni so'g'dcha "Bug'" - tangri, "oro" - "jamoli", ya'ni "Tangri jamoli" tarzida izohlaydi [1: 282].

Tadqiqot jarayonida boshqa manbalarga ham murojaat qildik. Jumladan, Muhammad G'iyosiddinning "G'iyos ul-lug'oti" asarida "Buxoro" atamasiga izoh berilib, Turondagi qadimgi shaharning nomi ekanligi, uning ma'nosi "ilm, ilm makoni" demakdir deyiladi [9: 119-120]. Ushbu tavsif Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asaridagi fikrlarga mos kelishi e'tiborga molikdir. Narshaxiyning bu shahardagi olimu ulamolarning ro'yxati bir necha qo'g'ozga sig'maydi deb ta'kidlagani buning dalilidir. Bundan tashqari "Buxoro" so'zining yana bir ma'nosi ham berilgan bo'lib, u "bug'", ya'ni issiq ta'sirida havoga ko'tariladigan par tarzida izohlanadi [9: 119-120].

Shuningdek, tojik tilining izohli lug'ati "Farhang"da ham "Buxoro" so'zining ma'nosi "suv zarrasi", issiq ta'sirida bug'lanadigan daryo, dengiz suvi tarzida izohlanadi-ki, bunda ham chuqur ma'no, mantiqiy, ilmiy mushohada mavjuddir [10: 217].

"Buxoro" toponimi xususida yana bir mulohaza, 1963 yilda akademik shoir, tariximizning zukko bilimdoni G'afur G'ulom tavalludining 60 yilligi munosabati bilan Buxoro shahriga tashrif buyurgan. Uytushirilgan tadbirda Buxoro davlat pedagogika instituti tarix-filologiya fakultetining talabalari ham ishtirok etgan. O'shanda Buxoro va buxoroliklar haqida jo'shib gapirgan shoir Buxoro tarixining ham chuqur bilimdoni ekanligini namoyish etib, shahar nomi xususida o'z mulohazalarini aytib, "Buxoro" so'zining yana bir - "Bug' oro", ya'ni "bug' orasidagi shahar" ma'nosi ham bor deb ta'kidlagan. Akademik shoirning ilmiy mushohadasida chuqur mantiq bor nazarimizda. Qadimgi Buxoroning Zarirud bo'yida paydo bo'lganligi haqidagi yuqorida keltirilgan xulosalarimiz bunga dalildir. Suv serob joyda bahor va kuzda havoga yengil, oq bug' - par ko'tariladi G'afur G'ulomning Buxoro toponimi haqidagi bu mulohazasida asos borligi shubhasizdir.

Shaharning xorijliklar tomonidan berilgan nomlari xususida shuni qayd etish lozimki, dastlabki nomlar ilk o'rta asrlardagi Xitoy manbalarida keltiriladi. Ular 10 dan ortiq bo'lib, An, Ansi, Ango, Nyumi, Buxo, Buxe, Buxaer, Fuxo Puxalo, Buxalo va boshqalar tarzida beriladi [5: 142-144]. Bunday xilma-xil nomlar xitoycha talaffuz oqibatida paydo bo'lgan. Ularning ba'zilar nafaqat shahar, balki hukmdor nomini ham anglatgan. Jumladan, An yoki Buxo mulki o'rta

asrlarda Nyumi nomi bilan yuritilgan. Nyumi Buxoro shahrining mahalliy nomi Numijkatning xitoycha aytilishidir.

Keyinchalik o'lkamiz va shahrimizning arablar tomonidan istilo qilinishi oqibatida ular ham yurtimizni o'zlaricha nomladilar. Qadimgi Turonni ular "Movarounnahr" deb atagan bo'lsalar, ancha yuksalgan Buxoro shahriga "Madinat as-Sufriya", ya'ni "Mis qo'rg'on, Mis shahri" deb nom berdilar [2: 25-28]. Shaharning bunday nomlanishi uning mustahkam mudofaa qo'rg'oniga, bosqinchilik yurishlaridan o'zini himoya vositalariga egaligini nazarda tutadi, ya'ni mustahkam qo'rg'on ekanligi e'tirof etiladi.

Shahar hali milloddan avvalgi IV–III asrlardayoq balandligi 2–2,5 metrli mustahkam paxsa devor bilan o'ralgan [9: 30-36]. Bizningcha, arablar nafaqat shaharning mudofaa inshootlarini, balki buxoroliklarning o'z ona shaharlarini himoya qilishda metindek irodasini ham nazarda tutib shunday nom bergan bo'lsa ajab emas.

Arablar tomonidan Buxoroga berilgan sifatlardan biri "Foxira" dir. Uning ma'nosi "Faxrli shahar" bo'lib, islom dinini targ'ib qilishda shahid ketganlar sharafiga shu nom bilan atashgan degan fikr mavjud [2,3,11: 45,15,10].

Muhammad Payg'ambarning sahobalaridan bo'lgan Salmon Forsiyning aytishicha, payg'ambarimiz (s.a.v.) Hazrati Jabroildan so'ragan ekanlar: Ey, Jabroil nega bu shahar Foxira deyiladi? Shunda Jabroil: Qiyomat kunida bu shahar barcha shaharlar orasida faxrli mavqeda bo'ladi, - deb javob bergan ekanlar [10: 1162-1168].

Xalqaro savdo-sotiq rivojlangan, ko'plab karvonsaroylarida dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan savdogarlarni ko'rib, arablar shaharni "Madinat at-tujjor", ya'ni "Savdogarlar shahri" deb atashgan. Haqiqatan ham, Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgan bu shaharni deyarli xorij savdogarlari chetlab o'tmas, unda foydali savdo-sotiq amalga oshirilardi.

Buxoroning xorijliklar bergan nomlaridan tashqari uning sifatlarini o'zida aks ettirgan nomlari ham uchraydi. Jumladan, qadimgi tangalarni o'rgangan numizmat olim A.Naymark Buxoro - Xitoy tangalaridagi yozuvlarni "Prn knd"ni o'qib, ular "Muhtasham shahar", "Farovon shahar, nomdor shahar" degan ma'noni anglatadi deb izohlaydi-ki, bu Buxoroning o'rta asrlardagi mavqeiga mos keladi[12,13,14: 1110-1018, 253, 87-88].

O'rta asrlarda Buxoroga berilgan nomlardan biri "Buxoroi sharif"dir. Ushbu nom "Sharafli Buxoro", "Muqaddas shahar" degan ma'noni beradi. O'rta asrlarda ayniqsa, arab istilosidan so'ng Buxoro islom dinining yirik markazlaridan biriga aylandi. Narshaxiyning ta'rificha, Buxoro bu nomga yoki sifatga islom dinini qaror toptirish, uni doimiy ravishda targ'ib qilishdagi xizmatlari hamda islom olamida bag'oyat katta o'rin tutgan muhaddis Imom Ismoil Buxoriy va boshqa qator piru komillarning etishib chiqqanligi evaziga erishgan. O'rta asrlardagi 7 ta sharif shaharlar qatorida Buxoroning bo'lishi uning musulmon olamida bag'oyat yuqori mavqega ega ekanligiga dalolatdir.

Birinchi Prezidentimiz Buxoro shahrining 2500 yillik tantanalarida: "Buxoro o'lkamizning ming yillar davomida jahon tafakkuri, ma'naviy, madaniy va diniy qadriyatlarini taraqqiyotiga ulkan

hissa qo‘shib kelayotgan shariflik nomiga sazovor bo‘lgan muqaddas joylardan biridir” – deganda ana shu tarixiy haqiqatni qayd etgan edi.

Buxorodagi ko‘pgina olimu ulamolarning xizmati tufayli shahar nomiga yangi sifatlar qo‘shilavergan. Jumladan, Narshaxiyning ma‘lumotlariga qaraganda Buxoro IX asrdayoq “Qubbat ul-islom” – “Islom dinining gumbazi” nomiga ega bo‘lgan. Bunday sharaflı nom Buxoroning islom dini, musulmon axloqi va huquqshunosligining sharqdagi kuchli markazlaridan biriga aylanganini bildirar edi. Qolaversa, bu sifat Buxoroda tug‘ilib faoliyat ko‘rsatgan imom Abu Hafsi Kabir Buxoriy tufayli berilgan edi. Buxoroda turli davrlarda bino qilingan 200 dan ortiq madrasalarda tahsil olgan kishilar ham diniy, ham dunyoviy ilmlarni targ‘ib qilganlar. O‘rta asrlarda Buxoroda (1417 yil) madrasa qurdirgan Mirzo Ulug‘bek “Ilm olmoqqa intilish har bir muslim va muslima uchun qarzu farzdir” degan so‘zlarni aynan shu shahardagi madrasa peshtoqiga behuda yozdirmagan bo‘lsa kerak. Bu yuqorida qayd qilingan sifatning bejiz emasligini ko‘rsatadi [15,16,17,18: 116-119, 36-39, 187-190, 88-90].

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Buxoro “Qubbat ul-islom”, ya’ni “Islom dinining gumbazi” va buyuk ulamolar so‘zi bilan aytganda, “Quvvati dini islom” deb tan olinishi ham Buxoroning jahonda, bugungi Sharq mintaqasida musulmon dunyosining mo‘tabar markazlaridan biri bo‘lishidan e’tirofdir.

Shunday qilib, yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, qadimiy shahrimiz qator nom va sifatlarga ega bo‘lib, ulardan “Buxoro” atamasi saqlanib qolgan. Bu atama V asrda Buxorxudot hukmdorlar chiqargan tangalarda ham uchraydi va keyingi davrlardagi hujjatlarda mustahkamlanib qolgan. Keyingi yillarda nafaqat shahar, balki viloyat ham shu nom bilan atalgan.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” давлат нашриёти, 2001.
2. Абу Бакр Муҳаммад Наршахий. Бухоро тарихи / Форс тилидан А.Расулев таржимаси. Масъул муҳаррир А.Ўринбоев. Мерос серияси. – Тошкент: Камалак, 1991.
3. Adizova N. Buxoro tumani toponimlari. – Toshkent: Navro‘z, 2020.
4. “Бухоро Шарқ дурдонаси”. – Тошкент: “Шарқ”, 1997.
5. Болтаев А.Х. Бухарские коллекционеры // Россия – Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. Сборник материалов международной научной конференции. – Челябинск: ЧГИК. 2019. – С. 142-144.
6. Болтаев А.Х. Бухоро ўлкашунослиги тарихини ўрганишда С.Н. Юренев ёзишмаларининг ўрни. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий университети хабарлари, 2018. №1, -Б. 5-9.
7. Мухаммад Ғиёсиддин. “Ғиёс ул-луғот”. 1 жилд. – Душанбе: Нашриёти “Адиб”, 1987.
8. “Фарханги забони тожик”. 1 жилд. – Москва: 1969.

Copyright © Author(s). This article is published under the Creative Commons Attribution (CC BY 4.0) licenses. Anyone may reproduce, distribute, translate and create derivative works of this article (for both commercial and non-commercial purposes), subject to full attribution to the original publication and authors. The full terms of this license may be seen at <https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/legalcode>

**INTERNATIONAL JOURNAL OF PHILOSOPHICAL STUDIES AND
SOCIAL SCIENCES**

ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039

<http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss>

Vol 1, Issue 4 2021

9. Ражабов О.И., Болтаев А.Х. XX аср 40-йиллари Бухорода ташкил қилинган илмий экспедиция. Ўтмишга назар | Взгляд в прошлое | Look to the past №6 (2021) – Б. 30-36
DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2021-6>
10. Rajabov O.I., Boltayev A.H. Buxorodagi ayrim muqaddas qadamjo-qal'alar xususida. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. ISSN: 2181-1601. Volume: 1, ISSUE: pp.1162-1168
11. То'раев Н. Вухоро топонимикаси. – Вухоро: Durдона, 2021.
12. Г.Б. Тўраева, Ф.Х. Ўтаева, Н.А. Жумаева. О.А.Сухарева тадқиқотларида Бухоро тарихи ва этнографиясининг ўрганилиши. Scientific progress 2021,1 (6), 1010-1018
13. Feruza Xolmamatovna O'tayeva. T.F. Gelax tadqiqotlarida Buxoro shahri mudofaa tizimining organilishi." The Fifth International Conference on History and Political Sciences" The 2015
14. F.K. Utaeva, N.A. Zhumaeva. The interpretation of the reign of mangit rulers and their personality in periodical press // Ўтмишга назар журнали 2019,22 (2).
15. Мубинов М.А. Дипломатические и посольские отношения среднеазиатских ханств с Османской империей // ВЕСТНИК ХОРЕЗМСКОЙ АКАДЕМИИ МАЪМУНА –1/2021. Стр.116-119.
16. Мубинов М.А. Из истории внешних отношений Бухарского эмирата (XVIII-XIX века) // ЗНАНИЯ И НАУКА В СУРХАНДАРЬЕ №1/2020. Стр.36-39.
17. Muhammadali Mubinov. The role of the Bukhara emirate in domestic and foreign trade routes (based on the works of Russian travelers).// CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH. ISSN: 2181-2489 VOLUME 1 | ISSUE 1 | 2021. P.187-190.
18. Мубинов М.А. Внешнеполитическая деятельность Бухарского эмирата (XVIII-XIX вв.) // Ученый XXI века • 2021 • № 8 (79). Стр.88-90.